

## YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI MAGISTRANTI

**Maxammadjonova Guli Tolibjon qizi**

“Nay cholg‘u ijrochiligining kelib chiqish tarixi”.

Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada, nay cholg‘usining boy va qadimiy tarixi, cholg‘u ijrochiligini tarixi, cholg‘uning tuzilishi, nafas olish qoidalari va vazifalari, buyuk allomalar rivoyatlari, ta’riflari, musiqiy sozlarni ilmiy asoslab berish va ularning ovoz registrlariga alohida e’tibor qaratgan holda tahlil qilish borasidagi musiqashunos olimlarning qo‘shgan hissalarini va e’tiborlari, qadimdan shakllangan musiqaga oid izlanishlar va O‘rta Osiyo tarkibida bo‘lgan o‘zbek xalq cholg‘ularini bizgacha yetib kelganligi yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar va iboralar:** *Musiqashunoslik, ma’naviyat, nay cholg‘usi, cholg‘u ijrochiligi, ma’naviy meros, milliy so‘zlar.*

Musiqashunoslik - insoniyat ma’naviyatining kalitidir, u orqali dunyoni anglash, tushunish doimo o‘z ijobatini topib kelgan. Shu bois hayotda musiqashunos bilan oshno bo‘lgan, musiqashunosning sehirli sadolaridan bahra olgan insonlarga ezgu amallarga qo‘l urganlar. Zero musiqashunos, har qanday ijod turining ilhomlantiruvchi kuchidir. Shu sabab bo‘lsa kerak, o‘tmishda yashab ijod etgan olimu fuzalolar, shoir-u adiblar musiqashunos bilan oshno bo‘lishga intilganlar. Uning sir-asrorlaridan boxabar bo‘lishga uringanlar.

Alisher Navoiy tabiri bilan aytganda, “Shodlik oshiruvchi xonanda, g‘ammi tarqatuvchi sozanda. Bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar”.

XIII asrda yashab ijod etgan tasavvuf ilmi allomalaridan Jaloliddin Rumiy hazratlarining o‘n yetti ming misradan iborat “Masnaviy” sida: “Tingla nay, andoq hikoyatlar qilur”, - deya ko‘hna sozlardan bo‘lmish - nay cholg‘usiga alohida ta’rif berilgan.

Nay - o‘zbek milliy cholg‘ularidan biri bo‘lib, qadim zamonlardan xalq orasida keng ommalashkan. Arxeologik qazilmalar natijasida Samarqandning Mo‘minobod qishlog‘idan topilgan, bundan 3300 yil avval suyakdan ishlangan to‘rtta teshikli nayni e’tiborga olsak, ajdodlrimizning juda qadim zamonlardan bu cholg‘uga oshno ekanliklari ayon bo‘ladi. Shuningdek, Surxon daryo hududidagi Ayritom

shahristonidan topilgan sozandalarning nay, surnay chalib turgan odamlarning toshka o'yilgan tasvirlariga asoslanib fikir yuritsak, Sozandalik san'ati, xususan, nay sozining qadimiyligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Qadimiy O'rta Osiyo tarkibida bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari ko'p asirlik rivojlanish jarayonida o'z xususiyatlarini, tovush hosil qilish uslubini saqlab qoldi. Nay, qo'shnay, surnay, chang, tanbur, dutor, g'ijjak, ud singari milliy sozlar bizgacha yetib keldi.

Musiqiy sozlarni ilmiy asoslab berish va ularning ovoz registrlariga alohida e'tibor qaratgan holda tahlil qilish borasida qadimdan musiqa shunos olimlarimiz o'zlarining munosib hissalarini qo'shkanlar. Mashhur sozanda va hopiz, bir necha musiqiy asarlar ijodkori Borbad Marviy, musiqa shunos Xoja Abdulqodir Maroqiy, Abu Ali ibin Sino, Qutbiddin ash-Sheroziy, Darvesh Ali Changiy, Najmiddin Kavkabi, Abdurahmon Jomiy singari allomalarimiz musiqa ijrochiligini ilmiy asoslash bilan birga, o'zlari ham sozanda sifatida mashhur bo'lganlar va musiqa ilmida ulkan ma'naviy meros qoldirganlar, sozlar ixtiro qilganlar, O'tmish ustozlarimiz barcha sozlar qatorida nay soziga ham alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbek xalq cholg'ulari o'zining betakrorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va turlarining ko'pligi jihatdan dunyoda birinchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Milliy musiqiy sozlarimiz juda boy va qadimiy tarixga ega. Nay ana shunday qadimiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. U j - nay) yasaladi. Nayda barmoq bilan bosiladigan 6 ta asosiy teshik bo'lib, ulardan tashqari puflash uchun teshik, yog'och va g'arov naylarda asosiy teshiklari orasida bitta hamda quyi qismida yana to'rtta teshiklar mavjudki, bularning barchasi nay tovushiga chiroyli tus berish uchun ochilgan<sup>1</sup>. Nayning tovushqatori diatonik bo'lib, ikki yarim oktava (birinchi oktava "lya" dan to'rtinchi oktava "re" gacha) tovush ko'lamiga ega. Ikkinchi oktava tovushidan yuqori pardalar nafas bosimini kuchaytirish yo'li bilan hosil qilinadi. Nay teshiklarini yarim ochgan holda esa xromatik tovushkator hosil qilish mumkin. Shuningdek, nayning puflanadigan teshigiga ijrochi labini pastrok yoki yuqori qo'yishi natijasida tovushni yarim pardaga farq qildirish mumkin.

Puflama cholg'u sozlari ilk yaratilgan nusxasida shaklangan. IX-X asrlarda yashab ijod qilgan, Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr al-Farobiy o'zining "Kitabul-musiqiy al-kabir" risolasida ta'riflagan Puflama cholg'u sozlari hozirgi davrimizdagi naydan deyarli farq qilmaydi<sup>2</sup>. Nayning yaralishiga doir bir rivoyatda aytilishicha: "Inson paydo bo'lgandan keyin yerda o'sib turgan qamishni qirqib olib, undan teshiklar ochib, nay yasaydi va chala boshlaydi. Nayning ohangiga mahliyo bo'lgan yer

yuzidagi barcha jonzot tirikchilik tashvishini unutib (sher kiyik bilan, bo‘ri qo‘y bilan, tulki tovuq bilan va h.k.) hech narsaga parvo qilmasdan ijrochining izidan ergashib ketaverishibdi. Buni kuzatib turgan Alloh-ta’lo yerdagi muvozanatni buzilganini ko‘rib insonning qo‘lidan nayni oladi va undagi mahliyo kiluvchi shirani so‘rib chiqarib tashlaydi va nayni qaytarib beradi. Hozirgi nayning maftunkor ovozi o‘sha shirasi so‘rib olingandan keyingi huzuri bo‘lsa undan oldingisining ta’rifiga so‘z o‘jiz”. Nay ustozlari Saidjon Kalonov, Mahmudjon Muxamedov nomi elga doston bo‘lgani va hozirda Halimjon Jo‘raev, Abdulahad Abdurashidov, Ahmadjon Sobirov, Tohir Qahhorov, Xurshid Oripov kabi naychi sozandalar bu cholg‘uning sehrini meyorida namoyon etayotganliklarini qayd etib o‘tish joizdir.

Nay cholg‘usi ham o‘ziga xos siru-sinoatlari va o‘zgacha tarovati bilan ajralib turadi. Nay o‘zbek xalqining milliy, qadimiy va eng sevimli sozlaridan biridir. Uning sersayqal va jozibali go‘zal ijrosiga erishish sozandadan lozim amallar va bilimli bo‘lishni talab qiladi. Nay cholg‘usi o‘ziga xos soz bo‘lib, tovush hosil qilinishi bo‘yicha damli cholg‘ular oilasiga mansubdir. Chunki ichkaridan tiqilib kelgan kuchli nafas to‘lqini nay teshigining o‘tkir qirrasiga uriladi va u yerda kesiladi. Nay ichiga kirgan nafas yo‘nalishi u yerda aylanma harakat hosil qilib nay ichiga qamalgan havoni ham harakatga keltiradi va tovush hosil bo‘ladi. Bunda 4 ta ijrochilik vositasining birgalikdagi harakati cholg‘uchi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Bular: a) lab, b) til, v) nafas, g) barmoqlar harakati.

a) Labning vazifasi; - Nay cholg‘usi pastki lab chegarasiga qo‘yilib, asosan ichkaridan kelgan kuchli nafasni nay teshikchasi qirrasiga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi va uni boshqarib turuvchi vazifani bajaradi. Bunda pardani sozlash (0,5 tongacha pasaytirish yoki ko‘tarish ) va turli bezaklarni chalishda lab va uning mushaklari asosiy ro‘l o‘ynaydi.

b) Tilning vazifasi: - Nay cholg‘usida til ichkaridan keladigan nafasni ushlab turuvchi asosiy klapan vazifasini bajaradi. Ya’ni til keskin orkaga chekingani zahoti tiqilib turgan nafas nay teshigining o‘tkir qirrasiga uriladi. Shu bilan birga til nay ijrochiligida turli shtrixlarni bajarishda (stakkato, detashe va h.k.) "tu", "ku" undoshlari orkali kuy ijrosini badiiy ifoda vositalarini ta’minlaydi.

v) Ijrochilik nafasi: - Oddiy nafas bilan ijrochilik nafasining farqi bor albatta. Oddiy nafas bir minutda 16 - 18 marta teng oralikla olib-chiqariladi. Ijrochilik nafasi esa olish tez, chiqarish ya’ni sarflash tejalgan xolda amalga oshiriladi. Ijrochilik amaliyotida nafas uch turga bo‘linadi;

- a) o‘pkaning pastki qismiga olinadigan qorin nafas;
- b) o‘pkaning yuqori qismiga olinadigan ko‘krak nafas;
- v) ikkala nafas samarali qo‘llanilgan aralash nafas.

Aralash nafas ijrochilikda qo‘llaniladigan asosiy nafaslardan bo‘lib, bunda qorin mushaklari (diafragma) nafas kuchini oshirishda va tayanch nuqta vazifasini bajarishda katta ro‘l o‘ynaydi. Nay cholg‘usida tez nafas olib uni sarflash jarayonida bir me‘yorda-ravon va davomiyligini ta‘minlash lozimdir. Sarflanayotgan havoni (puflash jarayonida) kuchsiz va kuchliligi past va baland pardalarni olish uchun zarurdir. Past pardalarga kuchsiz va baland pardalarga kuchli puflash orkali erishiladi. Bu bilan kuyning "dinamik" sifatlariga etishilib, ifodaviy xususiyatlar bilan boyitiladi.

g) Barmoqlarning vazifasi; - teshiklarni berkitib turuvchi yostiqcha vazifasini bajaradi. Sozandaning barmoqlari cholg‘uda erkin harakat qilishi uchun qulay xolatda joylashishi lozim. Chunki, cholg‘uda tovushqator bo‘ylab harakat aynan barmoqlar orqali bajariladi. Milliy ijrochilikda mavjud bo‘lgan "Forshlag", "trel", "kashish", "nola" kabi qochirim-bezaklar barmoqlar orqali amalga oshiriladi. Barmoqlar cholg‘u bilan birgalikda asosiy pardalar hisoblanadi. Ijro jarayonida yopiladigan teshiklar barmoqlar bilan jips yopilishi lozim. Nay sozi ijrosi uchun ushbu qayd etilgan ifoda vositalari eng muhimdir. Ularni sozandada bir-biri bilan mutanosib xolda shakllanishi takozo etiladi.

Nay cholg‘usi nafaqat O‘zbekiston va Tojikistonda, balki Buryatiya, Mangoliya Respublikasi, Xitoyda ham keng tarqalgan. Bu cholg‘u turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan: O‘zbekiston va Tojikistonda “nay”, Buryatiya va Mangoliyada “limba”, Xitoyda “li” deb yuritiladi.

Mazkur cholg‘u o‘zining mohirona ijrosi bilan shinavandalar qalbidan chuqur o‘rin olgan marhum ijrochilar: Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Dadaali Soatqulov, Jamil Kamolov, Ishaq Qodirov, Mahmud Muhamedov, Rabbim Hamdamov, Yusufjon Dadajonov, Uzoq Mahmudov, Yashin Haqqulov, Mirza Toyirov, Halimjon Jo‘raevlardir. Nay chalish sabog‘ini olayotgan har bir yosh talabalarimiz yuqorida nomlari tilga olingan ustozlar hayotini va ular ijro etgan dilrabo ohanglardan bahramand bo‘lishlari lozim. Hozirgi kunda xizmat qilib kelayotgan mashhur naychilar: Botir Do‘simbetov, Shukrullo Ahmadjonov, Ahmadjon Sobirov, Abdulahad Ergashev, Ilhomjon Javdotov, Halimjon Sharipov, Mansur Jomurodovlar yosh sozandalarga nay chalish sirlarini orgatib kelmoqdalar.

Nay o‘zbek va tojik cholg‘u ansambllari tarkibida yetakchi sozlardan hisoblanadi. Kuy boshlanadigan pardaga bog‘liq xolda nayga moslab boshqa cholg‘ular sozlangan. Shuning uchun naydagi barmoq chalgich teshikchalar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida besh qo‘l, to‘rt qo‘l, uch qo‘l deb nomlanuvchi sozlash turlari qo‘llangan. Hozirda nayning o‘rni yakkanavoz va jurnavoz soz sifatida yanada kengaydi, undan xalq cholg‘u ansambllari va orkestrlarida foydalanishning yangicha usullari yuzaga keldi.

Tarixdan ma'lumki, o'tmishda nafaqat olim-u fuzalolar, balki musiqaning zukko ixlosmandi bo'lgan shoxlar, vazirlar, sarkardalar ham san'at ahli, ularning ijodiy va ijroviy faoliyatlariga alohida ahamiyat berganlar, lozim bo'lsa, ularni munosib taqdirlaganlar yoki aksincha jazolaganlar. Bunga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi rivoyat yorqin misoldir.

Sohibqiron Amir Temur hofiz va sozandalarni yigib, musiqiy kechalar, o'ziga xos bellashuvlar o'tkazar ekanlar. Kunlarning biridagi davra suhbatida ustanaychi haqida so'z ketib, yig'ilganlar uning sozandalik mahoratini oshirib maqtashibdi. Nozik did sohibi Amir Temur ko'nglida qiziqish uyg'onibdi-yu, naychining ezginnolalaridan eshitishni xohlabdi. Usta naychini chorlab keltiribdilar. Naychi xalqona kuylarning goh unisini, goh bunisini chalib, ruhlarga zavq bag'ishlabdi. Shunda Hazrat allaqaysi bir musiqani chalib berishni so'rabdi. Naychi zo'r san'atkor ekan-u, ammo Amir Temur aytgan kuyni yaxshi bilmas ekan. U so'rovni rad qilolmabdida, chala boshlabdi. Avj pardalardan birida oddiy tinglovchi anglamaydigan, ammo nozikfahm kishi sezadigan darajada xato qilibdi. Kuyni berilib tinglayotgan Amir Temur sezibdi-yu, ammobildirmabdi. Kuy tugagach, Hazrat sohibqiron unga tahsin aytib, davlat xazinasidan bir qopchiq oltin beribdi.

Naychi tashakkur aytibdi va uyiga ketibdi. Borib qarasa, amir sarbozlari uning sarbozlari uning uyini buzayotgan emish.

-Hoy nima qilayapsiz? - deb baqiribdi naychi.

-Shoh amirini bajaryapmiz, - deyishibdi unga.

-Yolg'on aytasiz, - darg'azb bo'libdi naychi, - men axir boya Amir Temur huzurida edim-ku?

Sarbozlar ishni to'xtatmagach, naychi Sohibqiron huzuriga yuguribdi. Voqeadan voqif Xazrat ancha sukut saqlabdi-da, so'ng qat'iy:

-Olgan tillolaringga bir emas, ikkita uy qurib olsang bo'ladi. Sen kuyni buzib, avval birov qurgan uyni buzding, keyin esan mening ko'ngil mulkimni buz ding! - debdi.

Naychi bu achchiq haqiqat oldida lol qolib, indamay ortiga jo'nabdi...

Ko'ngil mulki! San'atga, ijodga bundan ham ortiq baho berish mumkinmi? Darhaqiqat, mukammal yaratilgan har bir kuy, qo'shiq - bu mustahkam qurilgan bino. Undan zavqlanish, ruhiy ozuqa olish umkin, ammo buzib bo'lmaydi.

Tog'ri, bitta kuy uchun birovning uyini buzish yaxshi emas, ammo unsif bilan aytganda minglab odamlarning ko'ngil mulkiga aylangan mumtoz asarni bir lahzalik uquvsizlik saba buzib yuborish ham adolatdan emas.

XX asrning 20-yillaridan boshlab nay cholg'usi sazandalar ansambli tarkiboda munosib ornini topdi, ommalashdi va bu cholg'uning mohir ijrochilari yetishib

chiqdiar. Y. Rajabiy, R. Hamdamov, M. Muhammedov, D. Soatqulov, I. Qodirov, M. Toirov, X. JOrayev, A. Sobirov, A. Abdurashidovlar shular jumlasidandir.

Nay sozining tarixiy shakllanishi mashhur ustoz naychi ijrochilar nomlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, har davrning ulug‘ ustoz naychi sozandalari o‘zlarining betakror ijrolari bilan nay cholg‘usini bugungi mukammallashuviga olib keldilar. Musiqa durdonalarini mahorat ila ijro qilib, shu soz uchun maxsus asarlar yaratib, yangi shogirtlar tarbiyalashda ularning xizmatlari beqiyosdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1) X. Aripov “Nay nolasi” Toshkent-2013.
- 2) X. Aripov “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” (Nay) Toshkent-2018
- 3) A. Sobirov “Nay navolari” Toshkent-2000
- 4) M. Toirov “Nay” darsligi Toshkent-2002
- 5) T. Qahhorov “NAY navosi” Toshkent-2008